

**IQTISODIYOTNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING
MAMLAKAT TARAQQIYOTIGA TA'SIRI**

Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot fakulteti

Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası

1-kurs Tayanch doktoranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tushunchasi, uning asosiy shakllari va uslublari, shuningdek, mamlakat taraqqiyotiga ko'rsatadigan bevosita va bilvosita ta'sirlari tahlil qilinadi. Rivojlanayotgan davlatlar misolida iqtisodiy siyosat, soliqlar, investitsiya muhitini yaratish, ijtimoiy barqarorlik va bozor munosabatlarini shakllantirishda davlat ishtirokining dolzarbligi ochib beriladi. Mamlakat iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishda davlatning tartibga soluvchi siyosati muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy strategiyalarni ishlab chiqishda va samarali boshqaruv mexanizmlarini shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: iqtisodiy tartibga solish, davlat aralashuvi, iqtisodiy siyosat, barqaror rivojlanish, raqobatbardoshlik, makroiqtisodiy boshqaruv.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi har doim muhokama mavzusi bo'lib kelgan. Ayrim iqtisodchilar erkin bozor tarafdori bo'lib, davlat aralashuvi minimal bo'lishi kerak deb hisoblasalar, boshqalar esa aynan davlat tomonidan tartibga solish orqali barqarorlik va ijtimoiy tenglik ta'minlanadi, deb bilishadi. Ushbu maqolada aynan davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli va bu holatning mamlakat taraqqiyotiga ta'siri tahlil qilinadi.

Iqtisodiyotni boshqarishda davlatning vazifasi – bu bozor mexanizmlari bilan birgalikda u faoliyat yuritadigan soha va shakllarni belgilash, shuningdek, turli iqtisodiy boshqaruv konsepsiyalarini tahlil qilishdan iboratdir. Bozor munosabatlari insoniyat taraqqiyotining muhim yutug'i bo'lib, u dastlab oddiy ishlab chiqaruvchi va

iste'molchi o'rtasidagi aloqalardan boshlangan va zamonaviy ishlab chiqarish tizimlarigacha rivojlangan.

Bozor tizimi turli ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatlarini uyg'unlashtiruvchi murakkab tizimdir. Unda ijtimoiy mehnat taqsimoti va xususiy mulk asosiy tayanch hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotida ishlab chiqaruvchi va tadbirkorlarning manfaatdorligi, erkin raqobatga asoslanganligi uni harakatlantiruvchi kuchga aylantiradi. Narx esa bu tizimdagi asosiy ko'rsatkich bo'lib, barcha iqtisodiy subyektlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bozor tizimi o'zining moslashuvchanligi va egiluvchanligi bilan ishlab chiqaruvchi hamda iste'molchilar qarorlarini muvofiqlashtiradi. U resurslarni tarmoqlar bo'yicha samarali taqsimlash, talab va taklif muvozanatini ta'minlashda muhim vositadir. Shunga qaramay, u barcha iqtisodiy jarayonlarni to'liq boshqara olmaydi. Masalan, iqtisodiy inqirozlar – 1929–1933 yillardagi global inqiroz bunga yorqin misol bo'la oladi. Bozor mexanizmi ba'zi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajara olmaydi, bu esa davlat aralashuvini talab etadi.¹

Zamonaviy sharoitda ishlab chiqarish faqat xususiy mulkka emas, balki jamoaviy (aksiyadorlik) va boshqa mulk shakllariga ham asoslanmoqda. Shu sababli davlat iqtisodiyotning yirik tarmoqlarini nazorat qilish, ularni rivojlantirish va tartibga solishga majbur bo'lmoqda. Temir yo'llar, telegraf, pochta, mudofaa kabi sohalar bunga misol bo'la oladi. Bundan tashqari, ba'zi iqtisodiy faoliyat natijalari ham davlat aralashuvini taqozo etadi.

Tarixan bozor iqtisodiyoti o'zini-o'zi boshqaruvchi tizim sifatida mavjud bo'lib keldi, biroq vaqt o'tishi bilan davlat aralashuvi zarurati tug'ildi. Davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi roli ikkita asosiy bosqichga bo'linadi:

- Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davr;
- Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr.

Birinchi bosqichda davlat xususiy kapitalni rivojlantirish uchun mehnat, soliq, savdo va ijtimoiy qonunchilikni yaratdi. Bu davrda davlat harbiy sanoat va temir yo'l

¹ Xudoyberganov Q.X., Tursunov B.O. Makroiqtisodiyot: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.

qurilishlarida faol ishtirok etdi hamda ba'zi tarmoqlarni tartibga solishga kirishdi (masalan, agrar soha, pul-kredit siyosati).

Ikkinchi bosqichda esa ko'plab davlatlar iqtisodiyotda rejalashtirish va dasturlash orqali milliy va hududiy rivojlanishni yo'lga qo'ydi. Byudjet va kredit siyosati orqali davlat aralashuvi yanada kuchaydi. Bu davrda davlat uzoq muddatli strategik maqsadlarni belgilab, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga intildi.

Bu – davlat tomonidan iqtisodiy jarayonlarni muayyan yo'nalishda boshqarish va sozlashni nazarda tutadi. Bunga soliq siyosati, byudjet siyosati, pul-kredit siyosati, investitsiya va tashqi savdo siyosati kiradi.

Davlat aralashuvining shakllari:

- Soliq va subsidiyalar orqali tartibga solish;
- Strategik tarmoqlarni nazorat qilish;
- Ijtimoiy siyosat orqali tenglikni ta'minlash;
- Korrupsiyaga qarshi kurash va raqobatni rag'batlantirish.

Bundan tashqari, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadi – mamlakat ichida va xalqaro maydonda iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, mavjud tuzumni mustahkamlash va uni doimiy o'zgarib borayotgan sharoitlarga moslashtirishdan iborat. Bu borada davlatning asosiy iqtisodiy funksiyalari quyidagilardan iborat: bozor tizimining samarali ishlashi uchun huquqiy va ijtimoiy asos yaratish, raqobatni qo'llab-quvvatlash, daromadlar va boylikni qayta taqsimlash, resurslarni samarali taqsimlash hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash.

Davlat iqtisodiyotga ta'sirini bevosita va bilvosita usullar orqali amalga oshiradi. Bevosita tartibga solish – bu to'g'ridan-to'g'ri aralashuv, ya'ni iqtisodiyotning ayrim sohalarini – transport, aloqa, energetika kabi tarmoqlarni markazlashgan boshqaruv ostida yuritish, ish haqi va narxlarni vaqtincha “muzlatib” qo'yish, ish bilan ta'minlash xizmatlarini yo'lga qo'yish va shu kabi chora-tadbirlarni qamrab oladi.

Bilvosita usullar esa iqtisodiy vositalar orqali amalga oshiriladi. Bunga pul-kredit va budjet siyosati orqali ta'sir o'tkazish kiradi. Masalan, foiz stavkalarini o'zgartirish, banklarning zaxira me'yorlarini belgilash, davlat obligatsiyalari

bozoridagi harakatlar va boshqa moliyaviy mexanizmlar orqali iqtisodiyotni boshqarish kabilar shular jumlasidandir.

Aholi daromadlari – ma'lum davr ichida fuqarolar olgan pul va natural ko'rinishdagi tushumlar yig'indisidir. Nominal daromad – bu pul ko'rinishida olingan sof tushumlar bo'lib, turmush darajasining ko'rsatkichi hisoblanadi. Daromadlar tengsizligi esa aholining turli guruhlarida daromad miqdorining farq qilishidir. Bu holat Lorents egri chizig'i va Djini koeffitsienti orqali o'lchanadi. Oila budjeti – bu bir oilaning ma'lum vaqt mobaynidagi barcha daromad va xarajatlarini o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy siyosat esa daromadlarning adolatli taqsimlanishini va iqtisodiy tengsizlikni yumshatishni maqsad qiladi. Ijtimoiy himoya tizimi esa aholining ehtiyojmand qatlamlarini iqtisodiy va ijtimoiy muhofaza qilish chora-tadbirlarini o'z ichiga oladi. Xususan, inflyatsiya yoki narxlarning erkinlashtirilishi sharoitida kam daromadli qatlamning farovonligini saqlash uchun ularning daromadlarini doimiy ravishda oshirib borish talab etiladi.

Iqtisodiyotni tartibga solish – bu zaruriyatdan kelib chiqqan holdir. Bozor tizimining ayrim kamchiliklari mavjud bo'lib, ular davlat aralashuviziz hal etilishi qiyin bo'ladi. Shu bois, har qanday iqtisodiy tizimda davlat va bozor o'zaro uyg'un holda amal qiladi. Biroq, turli tizimlarda bu ikki kuchning nisbati har xil bo'lishi mumkin: ba'zilar davlatga ko'proq tayanadi, boshqalari esa bozorga.

Mustaqillik davrida O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy inqiroz yoki keskin vaziyatlarda davlat tomonidan bevosita boshqaruv usullarining qo'llanishi ko'p hollarda o'zini oqlagan.

Milliy iqtisodiyotning samaradorligi ko'plab omillarga bog'liq bo'lsa-da, ayniqsa, iqtisodiy jarayonlardagi davlat va bozor tizimining nisbiy ro'li katta ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Milliy iqtisodiyotning yuqori samaradorligini ta'minlashda asosan quyidagi yo'llar muhim ahamiyatga ega: 1) bozor mexanizmlaridan foydalangan holda iqtisodiyotni tartibga solish; 2) iqtisodiyotni to'liq davlat tomonidan markazlashtirilgan boshqaruv asosida yuritish; 3) bozor usullari va davlat aralashuvining uyg'unlashuvi asosida takror ishlab chiqarish jarayonini boshqarish.

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishida aynan uchinchi yondashuv dolzarb hisoblanadi.

Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etish shakllari va ularni tartibga solishda xalqaro tajriba muhim o'rin tutadi. Iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirish maqsadida xorijiy sarmoyalarni jalb qilish orqali mavjud moliyaviy resurslar, vaqt va imkoniyatlardan samarali foydalanish, mavjud tavakkalchilik va shart-sharoitlarni hisobga olgan holda boyliklarni oqilona taqsimlash, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va uni global iqtisodiy tizimga integratsiyalash jarayoni jadallashmoqda. Shu bilan birga, chet el investitsiyalarini jalb etish orqali ularni iqtisodiyotning muhim tarmoqlariga yo'naltirish va samarali foydalanish imkoniyati kengaymoqda.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mamlakat taraqqiyoti uchun zaruriy omildir. Bu jarayonni samarali amalga oshirish orqali davlat nafaqat iqtisodiy o'sishni, balki ijtimoiy adolat va barqarorlikni ham ta'minlaydi. Shu sababli, iqtisodiy strategiyalar ishlab chiqishda davlatning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tish yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston, 1993.
2. Moliya va iqtisodiyot asoslari / Tahrir hay'ati: Xayitov A. va boshq. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Xudoyberganov Q.X., Tursunov B.O. Makroiqtisodiyot: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
4. Musayev B.X., Abdurahmonov Q.X. Davlat boshqaruvi nazariyasi. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2021.
5. Todaro M., Smith S. Economic Development. – Pearson Education, 2020.